

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## ANASH XALFA – ONAJON SOBIROVA IJODIDA G‘AZAL JANRINING O‘RNI

Gulfiza Olimova

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti  
[gulfizaolimova7@gmail.com](mailto:gulfizaolimova7@gmail.com).

**Annotatsiya:** Xalfachilik an'anasi ildizlari anchayin qadimiy bo'lib, Xorazm ayollari o'rtasida keng yoyilgan bu san'at turi sinkretik xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu an'ana ijrochilari bo'lgan xalfalar o'z ijodlarida sinkretiklikni aks ettirish bilan birga mumtoz adabiyot an'analariga ham murojaat qilishgan. Ushbu maqolada xalfachilik an'anasining taniqli vakilasi Anash xalfa ijodida mumtoz adabiyotning o'rni xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** xalfachilik an'anasi, xalfa, mumtoz janrlar, g'azal, she'riy san'atlar.

**Annotation:** The Roots of the Khalfic tradition are very ancient, and this type of art, widely spread among Khwarezmian women, is characterized by having a syncretic character. As well as reflecting syncretism in their creations, the Khalfa, performers of this tradition, also referred to the traditions of classical literature. This article deals with the role of classical literature in the work of Anash Khalfa, a prominent representative of the khalfic tradition.

**Keywords:** Khalfa tradition, Khalfa, classical genres, ghazal, poetic arts.

**Аннотация:** Традиции Халифата имеют довольно древние корни, и этот вид искусства, широко распространенный среди хорезмийских женщин, отличается синкретическим характером. Халфы, которые были исполнителями этой традиции, отражали синкретизм в своих произведениях, а также обращались к традициям классической литературы. В этой статье рассматривается роль классической литературы в творчестве анаша Халифа, выдающегося представителя традиции халифата.

**Ключевые слова:** традиция халифата, Халфа, классические жанры, газель, поэтическое искусство.

Xorazm dostonlari tarkibiga kiritilgan g'azal, tuyuq, fard, mustazod, masnaviy, murabba', muxammas namunalarini ijro etish XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr o'rtalariga qadar yashab o'tgan ko'plab xalfalar repertuaridan o'rin olganiga qaramay, mumtoz adabiyotga xos bo'lgan bu janrlarda ijod qilish, asosan shoira-dostonchi xalfalar ijodida ko'zga tashlanadi. Ular mumtoz adabiyotdan yaxshigina xabardor bo'lgani, Fuzuliy, Navoiy, Ogahiy, Mashrab kabi yetuk shoirlarning ijodini mukammal o'rganganligi sababli o'zlari ham shu yo'nalishda ijod qilishgan.

Shoira-dostonchi xalfalar orasida mumtoz adabiyotga murojaat qilgan xalfalardan biri Anash xalfa nomi bilan mashhur bo'lgan Onajon Sobirovadir. U o'z davrining shijoatli, jasoratli, atoqli xalfalaridan bo'lgan. Anash xalfa haqida ko'plab manbalarda turli ma'lumotlar qayd qilinganini uchratamiz. Folklorshunos O.Sobirovning ta'kidlashicha, Onajon xalfa Xorazmda birinchi bo'lib raqsga tushgan ayol bo'lgan [1]. Xalfachilik san'atining sinkretik ekanligi ham aynan shu xalfa

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ijodida ko‘zga tashlanadi. Bu haqida Gavhar Rahimovanning “Qutlug‘ yo‘lda” deb nomlangan kitobida “Onajonbiyi raqsga tushishdan tashqari qo‘shiq aytish va garmon chalishni ham bilar ekan” [2] kabi ma‘lumotlar qayd qilingan. Bularga qo‘shimcha ravishda u ijod bilan ham shug‘ullangan. Biz bu haqida uning ayrim she‘rlari turli to‘plamlarda e‘lon qilinganligidan ham bilishimiz mumkin. “Uning uchta she‘ri “Xorazm xalq qo‘shiqlari” (1965), o‘nta she‘ri “Xurshidi jahon keldi” (1987) to‘plamlarida e‘lon qilingan” [3]. Onajon Sobirova o‘z ijodida mumtoz janrlardan biri bo‘lgan g‘azalga murojaat qilganini ko‘rishimiz mumkin. Anash xalfaning “Etmishdur” radifli to‘rt baytdan iborat g‘azali mavjud bo‘lib, shoira unda Vatan madhini bayon qiladi. Mumtoz adabiyotdagi singari bu g‘azalning maqta’sida Onajon ismi taxallus sifatida keltiriladi.

A-yo do‘st-lar /, va-tan ish-qi / me-ni de-vo / na et-mish-dur /,  
V – – – / V – – – / V – – – / V – – – /  
*Ma-fo-iy-lun, ma-fo-iy-lun, ma-fo-iy-lun, ma-fo-iy-lun,*  
Shu-o ay-lab / bu ah-zan-da / mas-tu mas-to / na et-mish-dur /.  
O-mon bo‘l, ey / Va-tan, do-im / o-rom o-li / b O-na-jo-ning /,  
Qu-cho-g‘ing-da / o‘y-nab-ku-lib /, se-ni say-ro / na et-mish-dur /.

Murojaat qilish usuli bilan boshlangan bu g‘azal aruzning hazaj bahrida yozilgan. Odatda hazaj bahrida yozilgan she‘riy parchalarning har bir misrasi to‘rt taqte‘ga bo‘linadi va ularning hammasi sog‘lom, ya‘ni to‘liq holatda bo‘ladi. Keltirilgan g‘azalning misralari ham to‘liq holatdagi to‘rt taqte‘dan iborat bo‘lgani uchun biz bu g‘azalni hazaji musammani solim bahrida yozilgan deyishimiz mumkin. G‘azalning to‘rt baytida *devona-mastona-begona-sayrona* so‘zlari qofiyalanib kelgan. Shoira g‘azalda “*Ayo do‘stlar*”, “*ey Vatan*” so‘zlaridan foydalanish orqali nido; *g‘am, kulfat, og‘u; mavj, ummon, daryo* so‘zlarini keltirish orqali tanosub san‘atini qo‘llashga erishgan.

Onajon xalfa umrining o‘ttiz besh yili xonliklar davriga to‘g‘ri keladi. Vaholanki, o‘sha davrlarda turli cheklov va taqiqlar tufayli ayollarga erkinliklar berilmagan. Onajon xalfa 1900-yillarning boshida ayollar davrasida gamon chalib, qo‘shiqlar kuylay boshlaydi, tez orada xalfa sifatida taniladi [4]. Biroq bu holat o‘sha davrning ayrim amaldorlariga xush kelmas edi. Turli taqiqlarga uchragan Onajon Safarova qalbidagi kechinmalarini o‘z ijodida aks ettiradi. Shunday ijod namunalaridan biri “Mening” radifli g‘azali bo‘lib, dastavval xasbi hol tarzida yozilgandek ko‘rinadigan ushbu she‘riy misralarda shoira o‘z ahvolidan shikoyat, zamondan yozg‘irish kabi qalb kechinmalarini aks ettirgandek fikr uyg‘otadi. Ammo g‘azalning oxiriga borib muallifning asl maqsadi oydinlashib, mazlum ayollarning

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ozodlikka erishishi, jamiyatda ayollar ijtimoiy mavqeining yuksalishi uning chin ma’nodagi orzusi ekanligini bayon qiladi.

Qan-cha dod qil /dim ja-hon-da / ho-li xa-ro / bim-dur me-ning /,  
Qay-g‘u g‘am, mo / tam-sa-ro bo / ri ki-to-bim / dur me-ning /.

Zul-mi be-dod / ba-ri-ni taq / dir-ga yo‘l-dosh / dey-di-lar /,  
Shul sa-bab ro‘ /zi-g‘or bu-tun / lay xa-ro-bim / dur me-ning /.

Qofiyasi murdaf, ya’ni ridfli qofiya hisoblanib, *xarob-kitob-xitob* so‘zlaridagi *b* raviysidan oldingi *o* cho‘ziq unlisi ridf deyiladi. Shu sababdan bu murdaf qofiya hisoblanadi. G‘azal aruzning ramali musammani mahzuf bahrida yozilgan bo‘lib, ayrim misralarda hijolar soni ortish yoki bo‘g‘inlar va hijolarning teng kelmaslik holatlari uchraydi. Ammo biz buni xato deb aytolmaymiz. Chunki xalfalar haqiqiy mumtoz adabiyot vakillari bo‘lmaganligi, asosan, xalq dostonlari ijrosi bilan shug‘ullanganligi sababli ulardan to‘laligicha mukammal bo‘lgan mumtoz janr namunalarini kutish noo‘rin.

“Onajon xalfa 20-yillarda o‘zining faol jamoatchiligi bilan obro‘ qozondi, xotin-qizlar ozodligi, paranji tashlash, ma’rifat masalalarida katta ishlar qildi. Biroq shuni aytish lozimki, Onajon opa yana tazyiqqa uchrab, Mo‘ynoq, Xo‘jayli tomonlarda yashab yurdi” [5]. Bu kabi qarshilik va to‘siqlar, tuzumdagi ijtimoiy tengsizliklarga duch kelishiga qaramasdan ijod yo‘lidan mardona borib, san’atga umrini bag‘ishlagan Onajon xalfa o‘zining she’r va g‘azallarida hayotda hamisha mardona bo‘lish, qiyinchiliklarni sabot bilan yengish lozimligini aks ettiradi.

Ey ko‘ngil, har / dam o‘-zing-ni / er-ta-kech mar / do-na tut /,  
Cho‘k-ma g‘am-ga /, sen o‘-zing-ni / o‘z-ga-din mar / do-na tut /,

Nomard o‘lgay ul kishikim qo‘rqsa o‘lmak xavfidan,  
Bor ekan baskim umr bilan qadrini sherona tut.

Hayot mashaqqatlaridan aziyat chekkan muallif ko‘ngliga murojaat qilib, nasihat qilish orqali o‘zini qiyinchiliklarga chidamli bo‘lishga, ularni sabot bilan yengib o‘tishga chaqiradi. Shoiraning fikricha, o‘lishdan qo‘rqqan odam nomarddir, shuning uchun inson bu dunyoda yashar ekan, u hamisha mard bo‘lishi, mashaqqatlarga tik boqa olishi lozim. G‘azalning keyingi baytlarida dunyoning obodligi inson bilan ekanligi, shu sababdan odamzot doim aql bilan ish yuritishi lozimligi, bu dunyoda yomonlikning umri qisqa bo‘lishi, aksincha, yaxshilik abadiy qolishi, shuning uchun inson hamisha ezgulikka xizmat qilishi kerakligi haqida

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

fikrlarini bayon qiladi. G‘azal maqta’sini yuqoridagi pandona fikrlarga amal qilishga, avvalo, o‘zi burchli ekanligini o‘ziga uqtirgan holda yakunlaydi:

Onajon, pand-u nasihat bobida ochding labing,

Tut, o‘zing ham pandlaringga yona-yona tut.

G‘azalning ayrim misralari aruzning ramal bahriga to‘la muvofiq kelsa ham ayrim misralarda hijolar sonining kam yoki ortiq bo‘lgan holatlari, qofiyalarida g‘alizliklar uchraydi. Ammo bu mumtoz adabiyot vakilasining emas, balki og‘zaki ijod namunalari ijrochisi bo‘lgan xalfaning ijod namunasi ekanligini hisobga olgan holda biz bu she’riy parchani g‘azal sifatida o‘rgandik. Shoira bu g‘azalida ham bir nechta badiiy san’at turlaridan unumli foydalangan. Xususan, uning g‘azal matla’sida an’anaviy tarzda ko‘ngilga murojaat qilishi orqali nido, *yaxshilik va yomonlik, boabad va qisqa* so‘zlaridan foydalanishidan tazod, to‘rtinchi baytda birinchi misraning oxirida hamda ikkinchi misraning boshida *bor* so‘zini keltirish tasbe, beshinchi baytda esa ikkinchi misraning boshi va oxirida *tut* so‘zini qo‘llashi tufayli tasdir san’ati yuzaga kelgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, shoira-dostonchi xalfalar ijodidagi mumtoz janrlarga mansub she’riy misralarning ayrim o‘rinlarida ba’zi kamchiliklar ko‘zga tashlansa-da, ularning ijodini mumtoz adabiyot namunasi sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. О. Собиров. Хоразм воҳаси театрлари 1917-1941-йилларда. – Тошкент. 1991. Б.67.
2. Раҳимова Г. Қутлуғ йўлда. Тошкент, 1973. Б.28.
3. Рўзимбоев С., Сабирова Н. Хоразм халфачилиги анъаналари. Урганч. Б.30.
4. Оллоберганова С. Халфалар ижодининг ўзбек фольклоридаги ўрни. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент. 2007. Б.92.
5. Рўзимбоев С., Сабирова Н. Хоразм халфачилиги анъаналари. Урганч. Б. 29-30.